

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA ASKOTSIN

Preparatning savdo nomi: Askotsin

Ta'sir etuvchi moddalar(XPN): askorbin kislotasi va rux.

Dori shakli: chaynaladigan tabletkalar.

Tarkibi:

Har bir chaynaladigan tabletka quyidagilarni saqlaydi:

faol moddalar:

Askorbin kislotasi 100 mg;

Natriy askorbati askorbin kislotasiga ekvivalent 400 mg;

Rux oksidi ruxga ekvivalent 15 mg;

yordamchi moddalar: mannit, povidon (PVP K 30), krospovidon, ko'lining sariq shafaqi bo'yovchisi, etilsellyuloza (7cps), izopropil spirti, aspartam, magniy stearati, apelsinli aromatizatori.

Ta'rifi: och-to'q sariq rangli, bir tekis dog'li, dumaloq, ikki tomoni qavariq tabletkalar.

Farmakoterapevtik guruhi: askorbin kislotasi boshqa dori preparatlari bilan majmuada.

ATK kodl: A11GB

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Askorbin kislotasi (C vitamini) oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini tartibga soluvchi, antioksidant va metabolik vosita sifatida organizmning adaptatsion imkoniyatlarini oshiradi, uning infeksiyalarga qarshiligini kuchaytiradi.

Oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini tartibga solishda, uglevodlar, aminokislotalar, pigmentlar va xolesterin almashinuvida, steroid gormonlar, katexolaminlar sintezida, qon ivishi jarayonida ishtirok etadi. Kollagen sintezini kuchaytiradi, regeneratsiya jarayonlarini rag'batlantiradi, kapillyarlar o'tkazuvchanlik xususiyatini normallashtiradi. Jigarda nafas olish fermentlarini faollashtirish hisobiga uning detoksikatsiya va oqsil hosil qiluvchi faoliyatini kuchaytiradi, kollagen va protrombin sintezini oshiradi. Safro ajralishini yaxshilaydi, me'da osti bezining tashqi sekretor faoliyatini tiklaydi. Gistamin ajratilishini sekinlashadi va uning degradatsiyasini tezlashtiradi, prostaglandinlar hosil bo'lishini hamda yallig'lanish va anafilaksiyaning boshqa mediatorlarini susaytiradi. Immunologik reaksiyalarni tartibga soladi (antitanalar, komplementning S3-komponenti, interferon sintezini faollashtiradi), fagotsitozga yordam beradi, organizmning infeksiyalarga qarshiligini oshiradi. Yallig'lanishga va allergiyaga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Askorbin kislotasiga bo'lgan sutkalik ehtiyoj kattalarda 70–100 mg ni, homiladorlarda va laktatsiya davrida 100–120 mg ni, bolalarda yoshga bog'liq holda 30–70 mg ni tashkil etadi.

Rux biologik membranalar, hujayra retseptorlari, proteinlarning tuzilmaviy komponenti bo'lib hisoblanadi, 200 dan ortiq enzimatik tizimlar tarkibiga kiradi. Immun va antioksidant himoya reaksiyalarida, qon hosil qilishda, aminokislotalar sintezida, genetik axborotni saqlash va uzatishda ishtirok etadi. Retinolni tashuvchi oqsil komponenti bo'lgani holda rux A vitamini va C vitamini bilan birgalikda antitanalar sintezini rag'batlantirgan va viruslarga qarshi ta'sirni amalga oshirgan holda immun tanqisligi yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi. U eritrotsitlar va qonning boshqa shaklli elementlari hosil bo'lishi uchun zarur. Rux yog' almashinuvini normaga keltiradi, endokrin bezlarning normal faoliyatini, shu jumladan insulin, o'sish gormoni, kortikotropin va somatotropin sintezini ta'minlaydi. Jinsiy va reproduktiv faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi – jinsiy gormonlar o'tmishdoshi bo'lgan va testosteron hosil bo'lishiga

qo'shiladigan E vitamini metabolizmi uchun zarur; rux shuningdek prostataning normal faoliyat ko'rsatishi uchun ham muhim. Ruxga bo'lgan sutkalik ehtiyoj 15 mg ni tashkil etadi.

Farmakokinetikasi

Askorbin kislotasi ingichka ichakda faol so'riladi. Ichga qabul qilinganidan keyin 4 soat o'tgach plazmada maksimal konsentratsiyasiga erishiladi. Organizmda zahira darajasi taxminan 1,5 g ni tashkil etadi. Taxminan 25% plazma proteinlari bilan bog'lanadi. Metabolizmga uchramagan askorbat va metabolitlar buyraklar, ichak, shuningdek ter va ko'krak suti orqali chiqariladi. Me'da-ichak yo'llari kasalliklarida (gastrit, yara, qabziyat, ich ketishi, gijja invaziyasi, lyambliozda), yangi tayyorlangan meva va sabzavot sharbatlari iste'mol qilinganida, ishqorli suv ichilganida C vitaminining so'rilishi buzilishi mumkin. Plazmada preparat konsentratsiyasi 1,4 mg/100 ml dan ortiq oshganida uning chiqarilishi ortadi. Preparatning so'rilishi yangi tayyorlangan meva va sabzavot sharbatlari iste'mol qilinganida, ishqorli suv ichilganida kamayadi. Chekish va etil spirtini suiste'mol qilish organizmda askorbin kislotasi zaxiralarini keskin kamaytirgani holda uning parchalanishini jadallashtiradi.

Rux ichakdan so'riladi, to'qimalarda taqsimlanadi va qator fermentlar va biologik faol moddalar tarkibiga kiradi. Organizmdan chiqarilgan ruxning 90% axlat bilan, 2–10% siydik bilan chiqariladi. Kalsiy preparatlari va kalsiyga boy ratsion rux o'zlashtirilishini deyarli 50%ga pasaytirishga qodir, kofein va alkogol esa uni jadal ravishda organizmdan chiqaradi.

Qo'llanilishi

Askotsin shamollash, infeksiya va immun tanqisligi kasalliklariga moyillik bo'lganida, C vitaminining gipo- va avitaminozida, qon ketishlarida (bachadon, o'pka, burundan qon ketishlarida, nur kasalligida), jigar kasalliklarida (A gepatiti, surunkali gepatit, sirrozda), homiladorlar nefropatijasida, Addison kasalligida, antikoagulyantlar dozasi oshirib yuborilganida, suyak sinishlarida va uzoq muddat bitmaydigan yaralarda, distrofiyada buyuriladi. Askotsin immunitet pasayishi, biriktiruvchi to'qimalar shikastlanishi, uglevod, yog' almashinuvi buzilishlari, ichki sekretiya bezlari faoliyati buzilishlari, qon tomirlarining yuqori o'tkazuvchanligi va mo'rtligi bilan kechadigan kasalliklarni kompleks davolashda, shuningdek prostata bezining gipofunksiyasida qo'llanilishi mumkin. Preparat ateroskleroz, bronxial astma, biriktiruvchi to'qimalar kasalliklarida (revmatoid artrit, tizimli qizil yugurik, sklerodermiyada) buyurilishi mumkin.

Qo'llash usuli va dozalari

Askotsin ovqatdan keyin qabul qilinadi; tabletkani chaynaladi va ko'p bo'lmagan miqdordagi suv bilan ichiladi.

Kattalarga bir kunda 1 marta 1 tadan tabletka buyuriladi. Yaqqol ifodalangan avitaminozda va infeksiya kasalliklarini davolashda qisqa muddatda (5-7 sutka davomida) bir kunda 2 marta 1 tadan tabletka qabul qilinishi mumkin. Davolash muddati kasallik tabiati va kechishiga bog'liq.

Bolalar

Askotsin 6 yoshdan kichik bolalarga buyurilmaydi, chunki dozalari va dori shakli ushbu yosh guruhiga mos kelmaydi.

6-8 yoshdagi bolalarga ko'pi bilan sutkada 1 tabletka buyuriladi.

8-18 yoshdagi bolalarga ko'pi bilan sutkada 2 tabletka buyuriladi.

Nojo'ya ta'sirlari

Preparat odatda, yaxshi o'zlashtiriladi. Yuqori dozalarda uzoq vaqt qo'llanilganida quyidagi nojo'ya reaksiyalar bo'lishi mumkin.

Meda-ichaklar tomonidan buzilishlar: ko'ngil aynishi, qusish, jig'ildon qaynashi, diareya.

Nerv tizimi tomonidan buzilishlar: markaziy nerv tizimi qo'zg'aluvchanligining oshishi, bosh og'rig'i.

Buyrak va siydik chiqarish tizimi tomonidan buzilishlar: konkrementlarning hosil bo'lishi.

Teri va teriosti yog' to'qimalar tomonidan buzilishlar: allergik reaksiyalar.

Qon va limfa tizimi tomonidan buzilishlar: qonning shaklli elementlarida glyukoza-6-fosfatdehidrogenaza etishmovchiligi bo'lgan bemorlarda eritrotsitlar gemolizini keltirib chiqarishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Askorbin kislotasiga va preparatning boshqa komponentlariga individual yuqori sezuvchanlikda. Tromboflebit, trombozlarga moyillik. 6 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Askotsin qonda salitsilatlar, etinilestradiol, benzilpenitsillin va tetratsiklin konsentratsiyasini oshiradi, peroral kontratseptivlar konsentratsiyasini pasaytiradi. Kumarin hosilalarining antikoagulyasiya ta'sirini kamaytiradi. Ichakda temir preparatlari so'rilishini yaxshilaydi. Etil spirtining umumiy klirensini oshiradi. Xinolon qatori preparatlari, kalsiy xloridi, salitsilatlar, kortikosteroidlar uzoq vaqt qo'llanilganida C vitamini zaxiralarini kamaytiradi. Kortikosteroidlar C vitamini va rux darajasini kamaytiradi.

Askorbin kislotasi va deferoksaminni bir vaqtda qo'llanilishi temirning to'qimalarda, ayniqsa yurak mushagida toksikligini oshiradi, bu qon aylanishi tizimining dekompensatsiyasiga olib kelishi mumkin. Uni deferoksamin in'eksiyasidan keyin faqat 2 soat o'tgach qabul qilish mumkin.

Preparatning yuqori dozalari tritsiklik depressantlar samaradorligini kamaytiradi.

Maxsus ko'rsatmalar

Askotsin yuqori dozalarda qo'llanilganida buyrak funksiyasi va arterial bosimni, shuningdek me'da osti bezi funksiyasini nazorat qilish zarur.

Glyukoza-6-fosfatdehidrogenaza tanqisligida, buyrak funksiyasini buzilishlarida ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi; siydik-tosh kasalliklarida C vitaminining sutkalik dozasi sutkalik dozasi 1 g dan oshmasligi kerak.

Preparat turli xil laboratoriya testlari (qonda glyukoza, bilirubin miqdori, transaminazalar, laktatdehidrogenaza faolligi) natijalarini o'zgartirishi mumkin. Uzoq vaqt davolanganda glyukoza darajasini nazorat qilish zarur.

Askorbin kislotasi temir so'rilishini oshirishi tufayli, gemoxromatozi, talassemiya, politsitemiya, leykemiya va sideroblast anemiyasi bo'lgan patsientlarda uni yuqori dozalarda qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Organizmda temir miqdori yuqori bo'lgan patsientlarda askorbin kislotasi minimal dozalarda qo'llanilishi zarur.

Askotsin saraton kasalligi rivojlanib borayotgan patsientlarda ehtiyotkorlik bilan buyurish zarur, chunki uni qo'llanilishi jarayonning kechishini tezlashtirishi mumkin.

Homiladorlik va laktatsiya davrida ko'llanilishi

Homiladorlik davrida C vitaminini yuqori dozalarda uzoq vaqt qo'llanilishi homilaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Homiladorlik davrida faqat ona uchun kutiladigan foyda homila uchun keladigan xavfdan ustun bo'lganida qo'llanilishi mumkin. Askorbin kislotasi ko'krak sutiga o'tadi, shu sababli laktatsiya davrida preparatni shifokor nazorati ostida qo'llash zarur.

Avtotransportni va murakkab mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Preparat haydovchilarga yoki murakkab texnika bilan ishlovchi odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi ko'rsatmalar yo'q.

Dozani oshirib yuborilishi

Simptomlari: ko'ngil aynishi, qusish, ichak spazmlari, diareya; ehtimol allergik reaksiyalar, buyrak funksiyasini buzilishi, arterial bosimning oshishi, markaziy nerv tizimining yuqori qo'zg'aluvchanligi, uyquning buzilishi.

Davolash: simptomatik davolash o'tkaziladi.

Chiqarilish shakli

10 tabletka Alu/Alu stripda; 3 yoki 10 ta strip tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoitlari

Quruq yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin. Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz beriladi.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Manzili :

Plot No. M-3, Indore Special Economic Zone,
Phase-II, Pithampur, Dist.-Dhar, Madhya Pradesh-454774, Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlarni (takliflar) ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

"BARAKA DORI FARM" MCHJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalka Yuli ko'chasi, 91-uy.

Tel.: +(99871) 150-97-97; faks: +(99871) 150-97-87

Uyali tel.: +(99893) 388-87-82.

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz